



«SHARQSHUNOSLIK SOHALARINI
TADQIQ ETISHNING DOLZARB
MASALALARI» MAVZUSIDA YOSH
SHARQSHUNOSLARNING AKADEMIK
UBAYDULLA KARIMOV NOMIDAGI
XIX RESPUBLIKA ILMIY–AMALIY
KONFERENSIYASI

TO‘PLAMI



Toshkent–2024

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

**«SHARQSHUNOSLIK SOHALARINI TADQIQ
ETISHNING DOLZARB MASALALARI» MAVZUSIDA
YOSH SHARQSHUNOSLARNING AKADEMIK
UBAYDULLA KARIMOV NOMIDAGI
IX RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI**

TO'PLAMI



«FAN»
Toshkent - 2024

Nasirillayeva Nodirabegim Furqat qizi. BIBLIOGRAF OLIM ABDULLA NOSIROV VA UNING "BILKAT" ASARI HAQIDA	125
Oripov Davronbek. "O'G'UZNOMA"DAGI OYQOG'ON OBRAZI VA UNING "KITABI DADAM QO'RQUD"DAGI OBRAZLARGA TA'SIRI	129
Ravshanov Alijon. ZAMONAVIY MOLIVAVIY MASALALARGA BAG'ISHLANGAN FIQHIY ASARLAR TAHLILI	134
Samsakova Husniyaxon Xalxodjayeva. BOBOXONOVLAR SHAXSIY KUTUBXONASIDAGI QO'LYOZMALARNING DASTLABKI TAHLILI	142
Sirojiddinova Maftuna Baxodirovna. ARABSHOHIIYLAR SAROY DEVONIGA TEGISHLI QONUNCHILIK AKTLARI (dastlabki tahlil natijalari)	147
Sulaymonova Hulkar Mo'minjonovna. "AR-RASAIL" ASARINING GERMANIYA FONDALARIDA SAQLANAYATGAN QO'LYOZMALARI XUSUSIDA	153
Umaraliyev Sherzodjon Abdulaxat o'g'li. SIROJUDDIN O'SHIY "FATOVOI SIROJIYA" ASARIGA MUROJAAT ETGAN HANAFIY MAZHABI MANBALARI	159

TARIX VA TARIXSHUNOSLIK MASALALARI

Hulstine Matthew. CONVERGING NARRATIVES: THE SIGNIFICANCE OF 'ALIMQUL'S FALL	165
Azimov Xurshid. QADIMGI XITOIY MANBALARIDA MARKAZIY OSIYO DAVLATLARINING JOYLASHUV "XARITASI"	171
Ahmedova Dilafruz. BUXORO AMIRLIGI DIPLOMATIK MUNOSABATLARINING "INSHO" MAJMUALARIDA YORITILISHI	175
Idiyev Akbar Avaz o'g'li. SHAYBONIYLAR DAVRI SIYOSIY JARAYONLARIDA ETNIK BIRLIK LARNING ARALASHUVIGA DOIR	180
Kamoliddinov Farrux Burxoniddin o'g'li. MARKAZIY OSIYO RESPUBLIKALARINI FORS KO'RFAZI ARAB DAVLATLARI BILAN ALOQALARINING QAYTA BOSHLANISHI TARIXIGA NAZAR	185
Karimov Sherzod Shavkat o'g'li. TEMURIYLAR DAVLAT BOSHQARUVIDA XOJA MAJDUDDIN MUHAMMADNING TUTGAN O'RNI	189
Karimova Miyassar Jamoldinovna. O'RTA OSIYOLIK SAVDOGARLARNING SHARQ MAMLAKATLARI BILAN SAVDO ALOQALARI	196
Ostonov Jahongir Davlatovich. FRANSUZ SHARQSHUNOSI POL PELYONING ILMIY FAOLIYATIGA NAZAR	205
Pilipchuk Yaroslav Valentinovich. ГОСУДАРСТВЕННОСТЬ И ЭТНИЧНОСТЬ УСУЕЙ	210
Tojiyev Doston Beknazar o'g'li. TURKIY DAVLATLAR TASHKILOTI DOIRASIDAGI HAMKORLIK: ILMIY-MADANIY HAMDA SIYOSIY SOHALAR MISOLIDA	216
Fayzullayev Farrux Eshqabulovich. UDAYDULLAXONNING MUHAMMAD SHAYBONIYXON YURISHLARIDA ISHTIROKI	223
Xayrullayeva Iroda Faxriddinovna. HIND XOTIN-QIZLAR TA'LIMI EVOLYUSIYASI (JAMMU VA KASHMIR MISOLIDA)	230

KHAYRULLAYEVA Iroda Faxriddinova
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

layanch doktoranti

ORCID: 0009-0004-2694-4293

EVOLUTION OF INDIAN WOMEN'S EDUCATION (EXAMPLE OF JAMMU AND KASHMIR)

KHAYRULLAYEVA Iroda

Tashkent state university of oriental studies

doctoral student

ORCID: 0009-0004-2694-4293

Abstract: This article talks about the importance of education for women, including muslim women, living in the Union Territory of Jammu and Kashmir, located in the northern part of India.

Women make up about 47 percent of the society of Jammu and Kashmir, which is located in the northern part of India, where representatives of the Muslim religion have been living. However, the participation of women in the society's socio-political life is hardly noticeable. First of all, this is caused by the wrong interpretation of Islam, the low worldview of men in a patriarchal society, the lack of awareness of women's rights, the lack of educational facilities, a poor educational program, and a number of economic problems.

The result of the research is that the participation of muslim women in education in Jammu and Kashmir has a big difference compared to the representatives of other religions, as well as the literacy indicators of men, which first of all shows that the society is based on the patriarchal system, and the world view of the population is narrow.

In the conclusion, it was explained that the society of Jammu and Kashmir should gradually get education for women, and by providing them with quality education, a big way to improve the current economic and social situation will be opened.

Jammu va Kashmir Hindiston tomonidan boshqariladigan ittifoq hududi bo'lib, u Ladax va 22 tumandan iborat. Jammu va Kashmir ittifoq hududi o'zining boy tarixiga ega hisoblanadi [Christopher Snedden, 2015: 22].

Qadimdan Kashmir sanskrit tilini o'rganish markazi bo'lgan va bu kichik vodiya tarix hamda falsafaga oid ajoyib asarlar yaratilgan. U asrlar davomida Abhinav Gupta, Kalhana, Jonaraja, Shrivara, Kshemenetra, Bilhana, Sukta va Pratyabhata kabi buyuk sanskrit olimlarining maskani bo'lib kelgan.

Kashmirliklar haqida Joriy Greitson shunday yozadi: "O'z yurtlarining buyuk shon-shuhratlari bilan faxrlanadilar" [9: 241-251].

Kashmir vodiysida qadimdan ta'lim maskanlari mavjud bo'lib, hudud sanskrit tili, madaniyati, sa'atini o'rganish markazi sifatida e'tirof etilgan. Miloddan avvalgi III asrdan to milodiy VI asrgacha bo'lgan davrda hududda buddizm ravnaq topdi hamda shu yerdan Tibet, Xitoy va O'rta Osiyoga tarqaldi [10].

Qadimgi davrda asosan elita qatlamiga mansub ayollar ta'lim olish imkoniga ega bo'lgan va falsafiy munozaralarda qatnashishga ruxsat berilgan bo'lsa, quyri tabaqadagi xotin-qizlar o'zlarining iqtisodiy va ijtimoiy mavqeyi tufayli rasmiy ta'lim sohasida ishtirok etolmagan [4: 5-6].

Milodiy VI-VII asrda Vasugupta tomonidan shavritm (hindu mazhablaridan biri) falsafasi yaratilib, XIV asrgacha ushbu falsafa Kashmir vodiysida amalda bo'ldi. Aynan shu davrda buyuk tarixchi, shoir Kalxon Patanjali asarini yaratdi. Bu davrda bir qator ilmiy markazlari jumladan, Sharada va Harvan gullab-yashnadi [12].

Musulmon hukmdorlar davrida xotin-qizlar ta'limi. Islom dini XIII-XV asrlarda Kashmirda ildiz o'ta boshlagan va oxir-oqibat shavritm falsafasining tanazzuliga sabab bo'lgan. 1339-yilda Shoh Mir Kashmirning birinchi musulmon hukmdori bo'ldi va o'z sulolasini tuzdi. Yana bir manbada Bulbulshoh nomi bilan mashhur bo'lgan Sayid Bilol Shoh va Shoh Hamdan kabi musulmon hukmdorlar XIV asrda Eron hududidan o'zlar bilan islom dinini olib kelishgani keltirilgan [12]. Bulbulshoh ta'sirida o'sha paytdagi Kashmir podshohi Rinchan 1324-yilda islom dinini qabul qilgan birinchi sulton bo'ldi. U keyinchalik G'ani va Mohsin Foni kabi olimlarni yetishtirgan ta'lim muassasasiga asos soldi. Mohsin Foni "Dastiston-Majit" nomi bilan mashhur dinalar haqidagi buyuk kitobini avlodlarga qoldiradi [12].

Sharada g'arbiy ta'lim tizimi joriy etilgunga qadar mahalliy aholi ibodatxona va masjidlarda joylashgan mahalliy maktablar - Patshala va Madrasada ta'lim olishgan. Madrasalarda musulmon talabalarga Qur'onni o'qishlari uchun birinchi navbatda arab tilidan bilim berilgan bo'lsa, patshalalarda sanskrit tili hindlarga o'z diniy kitoblarni o'qiy olishi uchun o'rgatilgan [10].

XIV asr o'talarida musulmonlar hukmronligining paydo bo'lishi ayollarining jamiyatdagi mavqeyiga deyarli ta'sir o'tkazmadi. Asra-seltn parda tizimi (purdah forxha so'z bo'lib, "parda" ma'nosi anglatadi. Ayollar asosan tanasini berkitishi (nijob orqali) hamda ijtimoiy hayotda butun umrini uyda o'tatishga bog'liqlagan holatda o'tkazishi) odatiy holga aylandi va ayollarining uy ishleri bilan mashg'ul bo'lishi eng maqbul ish deb hisoblandi. O'rta asrlarda Kashmir ayollarining barchasi ham ta'lim olish imkoniga ega emas edi. Shubhasiz, yaxshi oiladan kelib chiqqan ayollar ta'lim olishsa-da, kambag'al va oddiy oila farzandlarida bu imkoniyat mavjud emas edi [12].

1596-yilda boburiy Akbar Shoh Kashmirni egallagan paytda so'fistik halli bahayot edi. Keyinchalik Dara Shukoh davrida (1645-1648) Oxund mulia Shoh Badaxshoniy boshchiligidagi tasavvut universiteti tashkil etildi. Upanishadlar va boshqa bitiklar aynan shu yerda fors tiliga tarjima qilingan. Ushbu universitet

binosi bugungi kungacha Dal ko'liga qaraydigan tog'ning etagida joylashgan bo'lib, Pari Mahal nomi bilan mashhur [14].

Biroq, bu mahalliy maktablarning asosiy maqsadi savodxillikni yo'q qilish bo'lsa-da [14: 5-6], lekin ko'p omillar ta'sirida umumiy ta'lim va ayniqsa, ayollar ta'limi tarikan jamiyatning juda kichik qismi bilan chegaralanib qolganligini ko'rish mumkin.

Boburiylar hukmronligidan so'ng (1586-1751) Afg'on Duroniylar imperiyasi (1747-1819) Kashmirni o'z taasarruflariga oladilar. Afg'onlar hukmronligida davrida ilmiy-tanadqiqat tashkilotlari dardor bo'ldi. Kashmir vodiysida afg'on, siroh va nihoyat Dogralar sulolasi qo'lga o'tgan sababli jamiyatdagi ayollar ahvoli yanada ayanchli bo'lib qoldi. Asrlar davomida davom etgan qatag'on va hukmdorlarning olib borgan siyosat xotin-qizlarning aqlli takomillashtirishdan ancha orqada qolishiga olib keldi [3: 518-519].

Jammu va Kashmirda xotin-qizlar ta'limi
Jammu va Kashmirda xotin-qizlar ta'limi 1819 yilda Maharaja Ranjit Singh Kashmirning so'nggi afg'on gubernatori ustidan g'alaba qozonib, bu shi'atni o'z ta'sir doirasiga kiritdi va 1846- yilgacha, ya'ni Kashmirni inglizlar zabt etganiga qadar buyruq hukmronlik qildi. 1846-yil birinchi ingliz-sikh urushida sikhlar mag'lubiyatga uchratgach, Amritsar shartnomasiga muvofiq inglizlar Kashmirni Maharaja Ranjit Singh qo'l ostida xizmat qilgan Jammu Rajas Dogra Gulab Singhga topshirdilar. Uning avlodlari Kashmirni Britaniya hukmronligi ostida Hindiston mustaqilligi yo'lga kiritilganiga qadar, ya'ni 1947-yilgacha boshqardilar.

Dogra sulolasi hukmronligi davridagi dastlabki yillarda ta'lim, xususan, xotin-qizlar ta'limi sohasida deyarli hech qanday o'zgarish bo'lmadi. Garchi Maharaja Gulab Singh (1846-1856) ilmiy homiysi hisoblanse-da, lekin Kashmirda u ilg'or hukmdor sifatida faoliyat yuritishni olmadi va buning o'rniga mahalliy aholiga mustamlakachi munosabatida ish yuritdi. U hukmronlik qilgan davrida madrasa va maktablarda ta'lim olish davom etse-da, bu ta'lim muassasalariga na moddiy va na havo yordam ko'rsatilgan va nazorat qilish tizimi mavjud bo'lgan [4: 209]. Shunga qaramasdan Gulab Singhning o'g'li Ranbir Singh (1856-1886) sharoitlarni o'zgartirish katta homiysi edi. U Jammu shahrida patishalarga (jim mazdori) asos soldi va 1882-yilda Panjab Universitetiga birinchi stipendiat sifatida o'qishga kirdi [12].

Zamonaviy ta'lim Kashmirga dastlab nasroniy missionerlarning say-harakatlari orqali kiritilgan bo'ldi. Ular kashmirliklarni Yevropa ta'limi namunasini bo'yicha o'qitish uchun chor-tadbiqlarni amalga oshirdilar. Maharaja Ranbir Singh tomonidan buyruq etilgan maktab 1874-yilda shi'at tomonidan boshqariladigan yagona maktab edi [2]. Birinchi ingliz maktabi 1880-yilda Shrinagarida Angliya cherkov missioneerlik jamiyati tomonidan ochilgan. 1890-yilda Jammu va Shrinagarida o'rta maktab hamda yana sakkitza boshlang'ich maktab ochildi [12]. Madrasa va patishala deb nomlanuvchi ta'lim muassasalar asta-sekin umumiy boshlandi. Dastlab hind va pravoslav musulmonlarning diniy qurashlari tufayli ayollar ta'limi sezilarli muvaffaqiyatga erishmadi, ammo missioneerlarning tibbiyot va ta'lim sohalaridagi muvaffaqiyatlari liberal qadrlar o'rtaida ta'limning o'sishiga olib keldi. Missioneerlar jamiyatidagi hindlarni ham

musulmonlarni ham Kashmirdagi xotin-qizlarni ta'lim olishni rag'batlantirishga urindilar. Missioneerlar uchun qizlarning ta'lim olishi juda muhim edi, chunki ular kelajak avlodning onalari edi [13: 257].

Missioneerlar aholiga ayollar ta'limi muhimligini tushuntirishga harakat qilishdi. Shrinagarida qizlar ta'limi rivojlanishiga hissa qo'shgan shaxslar orasida Miss Cherchill, Teylor, Miss Robinson, Miss Fitze va Miss Mallinsonlar bor edi. O'z e'tik missioneerlarning mahalliy erkaklar fikrlash doirasini kengaytirishga urindi shu tariqa Kashmirning madaniy uyg'unlash tarixida ajoyib bo'roni tashkil etdi [1: 218-219].

1893-1895-yillarda Angliya cherkovi "Zaman Missioneerlik jamiyati" tomonidan Shrinagar shahri Fatch Kadal tumanida birinchi qizlar maktabini ochdi [11: 153-154]. Biroq, aholi tomonidan qizlar maktabi ochilishi tanqidga uchradi va bir muddat bu ilmiy maskani o'z faoliyatini to'xtatishga majbur bo'ldi. Urdan bir necha hafta o'tgach maktab qayta ish boshladi va qabul qilinuvchi o'quvchi qizlar soni keskin oshadi. Bu muvaffaqiyat Fatch Kadalni qiz va o'g'il bolalar birga tahsil oladigan maktab ochishiga undadi. Maharaja Pratap Singh boshqarishi va jamoatchi bo'lgan Amie Besant xonimni Kashmir vodiysida o'qitishni rivojlantirishga undadi va natijada 1905-yilda Shrinagar shahrida kollej ochilishiga muvaffaq bo'ldi. Kollej dastlab hindlar kolleji deb ataldi, so'ng Smt Pratap nomiga o'zgartirildi. Majburiy ta'lim (faqat o'g'il bolalar uchun) birinchi marta 1931-yil aprel oyida Shrinagar va Jammu shaharlarida joriy etildi [11: 153].

XIX asr Kashmir vodiysida ijtimoiy harakatlar natijasida jamiyatda ingliz-biy o'zgarishlar yuz berdi. Garchi shahardagi bu harakatlar uchun musulmonlar ham, g'ayri din vakillari ham birdek mas'ul bo'lsalar-da, aynan nasroniyar bu borada yirik rol o'ynadilar (Giancy commission report, 38).

Shunday qilib, Britaniya mustamlakachiligi ostidagi Dogra sulolasi hukmronligining so'nggi yillarda xotin-qizlar ta'limi sezilarli muvaffaqiyatga erishdi. Turli davlat maktablarining mavjudligi shaharda olib borilgan ta'lim faoliyatining ibtidoi edi. Hukumat tomonida davlat va xususiy maktablarining ochilishini rag'batlantirish uchun grant tizimini joriy qilinish, ta'lim qo'mitalarini tayinlash va o'quv konferensiyasining tashkil etilishi hukumatning avvalgi ta'lim siyosati o'zgarishidan dalolat berardi. Missioneerlar ham o'z maktablariga mahalliy xotin-qizlarni jalb qilish borasida deyarli barcha cheklarni bartaraf etishga erishdilar.

Zamonaviy davrda Jammu va Kashmirdagi musulmon ayollar ta'limi
XX asrning boshlarida qizlar maktablari sonining ko'payishi tashvish oluvchi bo'ldi. XX asrning boshlarida qizlar maktablari sonining ko'payishi tashvish oluvchi ayollar foizining oshishiga olib keldi. Mahalliy xotin-qizlar orasida ta'lim olishga istiqbol tug'ulsa-da, ularning aksariyati kollejlarda o'qishlarni davom ettira olma-ganlar. Bu esa ayollar uchun o'qitish ta'lim muassasasining yo'q bo'lishi bilan bog'liq edi.

1970-yillarga kelib ayollar ta'limi sohalarida o'zgarishlar yuz berdi. Xotin-qizlar uchun oliy ta'lim muassasalarini tashkil etilishi bilan ularning salohiyatini oshirish, dunyoga qaratilgan o'zgarish. Zamonaviy ta'limning kengayishi tufayli Kashmir ayollarida keng ko'lami ijtimoiy uyg'unlash va siyosiy ongning o'sishi kuzatildi. Ayollar endi o'z xaq-huquqlaridan xabardor bo'lishdi. Xuddi shunday

jamiyatning xotin-qizlar ta'limiga bo'lgan munosabatining munhazam o'zgarib borishi tufayli maktab va kollejlarda musulmon ayollarining soni asta o'sib bormoqda va ularning zamonaviy ta'limdagi ishtiroki sekin sur'atda bo'lsa ham oshadi [Rizan F.A.2005.228-229].

Jammu va Kashmir ijtimoiy hayotida xotin-qizlar ta'limiga e'tibor qaraltishda, ta'limdagi gender tafovutini bartaraf etishning imkonini bo'lmadi. Aholini ro'yatga olish ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, 1961-2011-yillardagi savodxonlik darajasi gender bo'yicha o'sgan, biroq erkak va ayollar savodxonlik ko'rsatkichlari o'rtasida gender notenglik saqlanib qolgan. (1-jadval) [5].

1- jadval. Jammu va Kashmirda gender bo'yicha savodxonlik darajasi tendensiyalari (%)

Vill	1961	1971	1981	1991	2001	2011
ar	61	71	81	81	81	82
umiy	12	21	30	46	54	65
Erk	19	31	41	46	65	75
ayol	5	10	18	26	41	54

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, Jammu va Kashmir hukumati aholi savodxonligini oshirish yo'nalishida sezilarli yutuqqa erishgan. Savodxonlik darajasi 1961-yildagi 12,95 foizdan 2011-yilda 68,74 foizga ko'tarilgan. Shuningdek, kechirilgan yillarda erkaklar savodxonlik darajasi xotin-qizlarnikidan yuqoriroq bo'lgan. Biroq, 2011-yildagi ma'lumotlarga ko'ra, ayollar savodxonlik darajasi 5,05 foizdan 58,01 foizga oshdi. Shunday qilib, xotin-qizlar savodxonlik darajasi joriy yillarda sezilarli yutuqqa erishdi, biroq ayollar va erkaklar savodxonlik darajasi o'rtasida mavjud notenglik saqlanib qoldi.

2-jadval. Jammu va Kashmirdagi musulmonlar savodxonlik darajasi (%).

Hudud	Aholi	Erkaklar	Ayollar
Kupvara	41.59	53.71	28.56
Baramulla	44.19	55.59	31.73
Shrinagar	57.69	66.95	47.45
Badam	41.55	52.18	30.22
Pulvama	48.76	59.54	37.4
Anantnag	45.85	56.62	34.25

Ladakh	68.74	81.82	52.7
Kargil	60.99	76.26	43.65
Doda	42.98	57.9	26.49
Udhampur	9.89	92.48	79.15
Punch	47.65	61.98	32.28
Rajauri	47.2	60.13	32.76
Jammu	59.5	69.6	47.11
Kathua	41.14	54.58	26.15

Musulmon din vakillarining savodxonlik ko'rsatkichi pastligi Jammu va Kashmirning deyarli barcha hududlarida aks etmoqda. Ushbu jadvalda Jammu va Kashmirning 14ta tumanida musulmonlarning savodxonlik ko'rsatkichi ko'rsatilgan bo'lib, deyarli barcha tumanida erkaklar savodxonlik darajasi dominant bo'lib kelmoqda [5].

Musulmonlar o'rtasida ta'lim sohasidagi gender talvut eng yuqori Kargil tumanida (32,61%) bo'lsa, Udhampur tumanida bu ko'rsatkich 13,33 foizni qayd etadi. Shuningdek, Udhampur tumanidagi musulmonlar savodxonlik ko'rsatkichi bo'yicha eng yuqori darajani egallaganlar.

Xulosa. Yuqoridagi tahlildan xulosa qilish mumkin, Jammu va Kashmir hududida ta'limga e'tibor ilk asrlardan boshlangan. Musulmonlar kirib kelishi bilan jamiyatdagi mavjud din, an'ana, urf-odat, boshqaruv shakli, shuningdek, ta'lim tizimi kabi sohalar isloh qilindi. Aholining aksariyati hindlar pishshalada, musulmonlar esa madrasalarda tahsil olishgan. Xotin-qizlarning katta qismi uy xo'jalik yumushlari bilan band bo'lishgan bo'lsa, jamiyatda o'z mavqeyiga ega bo'lgan xonadon vakillari tahsil olish imkoniga ega bo'lishgan.

Hindistonida musulmon ayollarining ta'lim darajasi va dimga asoslangan aholini ro'yatga olish ma'lumotlari bo'yicha juda kam tadqiqotlar mavjud, bu esa bizga musulmon ayollarining ta'lim holatini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Ammo shunga qaramay, hozirgi vaqtda musulmon ayollarining ta'lim sohasidagi ishtiroki o'tmishdagi qaraganda ancha yaxshiroq ekanligini ta'kidlash mumkin. Musulmon ayollarining ta'limdagi qo'llanilishi, odatda, islom dinining ba'zi tamoyli va me'yoriati bilan bog'liq deb taxmin qilinadi, ammo bu to'g'ri emas. Chunki islom dini erkak va ayollarining jamiyatdagi muqommoti teng bo'lgaydi, bu Qur'on va Hadislar orqali ham tasdiqlanadi.

Musulmon ayollarining ta'lim sohasida qo'llanilgan konservativ feodalistik jamiyat bostirishining oqibati edi. Diniy qarantaga qarshilik hamda periaral xurot ayollarni ta'lim olish huquqidan mahrum qilib, ularni savodsiz bo'lishga sabab bo'lmog'da. Britaniya mustamlakachiligi davrida amaldagi hukumat xristian missiонерlari orqali nafaqat zamonaviy ta'limni joriy etganlar, balki savodsiz ayollarga ilm olishning asoslarini ham o'rgatganlar. Aslida esa mustamlakachi bo'lgan hukumatning asosiy maqsadi tashqi ko'rinishi hind, filistin esa inglizlariga muvofiq ayollarining ta'lim olishi uchun massus choralar ko'rdi. Bularning barchasiga qaramay, musulmonlarning, xususan, musulmon xotin-qizlarining

ning savodxonlik darajasi bo'yicha davlatdagi umumiy mavqeyi qoniqarli emas edi. Ta'limning barcha bosqichlariga qizlarni jalb etilishi o'g'il bolalar bilan solishtirganda ancha past. Shu sabab ham davlat va ham ko'ngilli tashkilotlar tomonidan xotin-qizlar ta'limini rivojlantirishga qaratilgan turli qaror va dasturlar amalga oshirilmogda. Hukumat va ta'lim sohasidagi nodavlat tashkilotlarning sa'y-harakatlariga qaramay, Jammu va Kashmir shtatida ayollar aholisining asosiy qismi savodsiz. Savodxonlik darajasida hali ham gender farqlari mavjud. O'rganilayotgan hududdagi ta'limning muammoli holatini tegishli forum va kontekstda hal qilinishi kerak. Shunday qilib, markaziy hukumat mazkur hududda ta'lim berishga katta e'tibor qaratishi, "Ta'lim huquqi to'g'risida" gi qonunni Jammu va Kashmir hududida ham tadbiq etish bo'yicha amalda shug'ullanishi zarur. Bir so'z bilan aytganda, oqilona siyosat va yaxshi boshqaruv davlatni xotin-qizlar ta'limining tezroq va sifatliroq rivojlanishiga olib kelishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bazaz P.N. Daughters of the vitasta. – New Delhi, "Pamposh Publications", 1959. 5-6 pp.
2. Bhat P. H. Modern education in Kashmir – I. – India: "Greater Kashmir", 2022. – P. 26.
3. Bamzai P.N. Culture and Political History of Kashmir. Vol. II. – New Delhi: "MD Publications".1994. 518-519 pp.
4. Bazaz P. N. Daughters of the vitasta: A history of Kashmiri women from early times to the present day. – New Delhi. 1959. –P. 209
5. Census of India, Jammu and Kashmir. Reports for 1961, 71, 81, 2001, 2011.
6. Diladan Manzoor. Female education in rural Kashmir: A historical study of block Pulwama (1947-2000). Dissertation. University of Kashmir Hazratbal Srinagar-190006. – Srinagar, 2011. -P.125.
7. Fayaz Ahmad Bhat, Fouiza Khurshid and Nazmul Hussain. Islam, Gender and Education: A case study of Jammu and Kashmir. – India: "Asia-Pacific of Social Sciencs". 2011. 159-187 pp.
8. Government of India (GOI). Department of School Education and Literacy (MoHRD). –New Delhi. 2008. Retrieved June 21, 2010 from <http://ssa.nic.in/ssaframework/ssafram.asp#1.0>
9. Greirson G.A. Linguistic survey of India. Vol.VIII, Part II; – Calcutta: Superintendent of government printing, India, Calcutta, 1919. 241-251pp.
10. Ministry of foreign affairs. Kashmir through ages. <https://mofa.gov.pk/kashmir-through-ages/>
11. Mohd Ishaq Khan. History of Srinagar (1846-1947). – India: Cosmos publications,1999. 151-153 pp.
12. Schooling in 1947. <https://kashmirilife.net/schooling-in-1947-vol-14-issue-22-299084/>
13. Tyndale Biscoe. Autobiography. – London, 1951. 280 p.
14. Chohan A.S. Development of education in the J&K state. –New Delhi: "Atlantic Publishers", 1998. 5-6 pp.